

Qo'shiq eshitishni qanday to'xtataman?!



Qo'shiq eshitish yaxshi emasligini bilasiz-u,
lekin ulardan voz kecha olmayapsizmi?
O'qing!

1-qadam. Ko'zingizni chirt yuming-da, telefoningizdagi hamma qo'shiqlarni o'chirib tashlang. Bitta ham qolmasin. Robbingizning roziligi uchun keching hammasidan!

2-qadam. Endi telefoningizni nashida va salovatlarga to'ldirib qo'ying. Qachonki, zerikib qo'shiq eshitgingiz kelsa, ana shu nashidalarni eshiting. Ular qo'shiqni o'rnini bosa olmaydi, demang. Nashidalarni ham quloqqa yoqimlilari bor 😊

3-qadam. Endi, "Bismillah" deb Qur'on suralarini eshitishni boshlang. Bu eng yaxshisi 👍

Qo'shiq eshitib, jazavaga tushganingiz qayoqda-yu, Qur'on tinglab, xotirjamlikka erishganingiz qayoqda?!

"Allohning zikri ila qalblar orom

topmasmi?!" (Ra'd surasi, 28) Buyuk Alloh rost so'zlaydi!

Tabiiyki, qo'shiqqa o'rganib qolganingiz sababli, ba'zida qo'shiq xirgoyi qilib qo'yasiz. Shunda "Astag'firulloh" deng-da, Allohni zikri bilan tilingizni band qiling. 😊

Albatta, bularni birdaniga bajara olmasligingiz mumkin. Shunday bo'lsa ham harakat qiling. Qo'shiqlar U (Qiyomat) kuni zararimizga hujjat bo'lmasin!

Bilasizmi, Jannat ahli nimadan afsuslanar ekan...

Allohning zikrisiz o'tgan har bir soniyasiga achinar ekanlar...

Siz-chi?

Alloh sizga "Mening kalomimdan musiqalar ustun bo'ldimi...?" deb savol

bersa, qay holatga tushgan bo'lar edingiz...?

Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam sizning bu ishingizni ko'rganlarida va sizdan "Men kechalari Ummatim deb yig'laganlarim evaziga sen vaqtingni shaytoniy narsalarga sarflayapsanmi" deb so'rasalar qay ahvolga tushasiz...?

Ey birodarlarim... Oxiratni o'ylab ish qiling...
Bu dunyo o'tkinchi dunyodir..

[@pdf_book_uz](https://www.pdf_book_uz)